

KONFERENSIYALAR.COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

NOYABR, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, noyabr

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-8337-2-4

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, noyabr, 2025. – 52 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 1-noyabr.

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-8337-2-4

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Кузибоев Шихназар

ИССЛЕДОВАНИЕ ФИЗИКО-ХИМИЧЕСКИХ СВОЙСТВ И ЭФФЕКТИВНОСТИ МАГНИТНЫХ СОРБЕНТОВ НА ОСНОВЕ РОТОРНОГО ШЛАКА4-11

Исмаилова Зумрад, Анарбаев Анвар

ПРИМЕНЕНИЕ СОЛНЕЧНЫХ УСТАНОВОК В СХЕМАХ КОНДИЦИОНИРОВАНИЯ ВОЗДУХА ЗДАНИЙ В НА ОСНОВЕ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ВОЗДУХА 12-15

Mirjalolova Nargiza

SIMSIZ SENSOR TARMOQLARI (WIRELESS SENSOR NETWORKS) ARXITEKTURASI, TURLARI VA MUAMMOLARI 16-20

TARIX FANLARI

Narzullayeva Zulxumor

SULTON MALIKSHOHNING MA'RIFATPARVARLIK SIYOSATI 21-23

FALSAFA FANLARI

Xoshimov Hakimjon

YOSHLARNING IQTISODIY MUSTAQILLIGI VA IDENTIK O'ZINI ANGLASH JARAYONI: IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK OMILLAR 24-29

FILOLOGIYA FANLARI

Begmatova Dilorom

DARIY TILIDAGI IQTISODIY XARAKTERDAGI SIYOSIY EVFEMIZMLAR 30-32

YURIDIK FANLAR

Каюмова Малика

КРИМИНАЛИЗАЦИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА (ИИ) В ПРЕСТУПНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: ПРОБЛЕМЫ КВАЛИФИКАЦИИ И ОТВЕТСТВЕННОСТИ 33-36

PEDAGOGIKA FANLARI

Shermatova Saxobaxon

OLIIY TA'LIMDA KLASSTERLI YONDASHUV ORQALI INDUKTIV VA DEDUKTIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI 37-39

Odiljanova Gulasalxon

TA'LIM JARAYONIDA REFLEKSIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI 40-43

Xakimov Tulanboy

NARRATIV PEDAGOGIKANING ANTROPOLOGIK VA AKSIOLOGIK ASOSLARI TARIX TA'LIMIDA 44-46

TIBBIYOT FANLARI

Fayziyeva Nozima

EKOLOGIK OMILLAR TA'SIRIDA PAYDO BO'LADIGAN SURUNKALI KASALLIKLARNING OLDINI OLIHDA TIBBIY-MA'RIFIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ROLI 47-51

TARIX FANLARI

SULTON MALIKSHOHNING MA'RIFATPARVARLIK SIYOSATI

Narzullayeva Zulxumor Hazratqul qizi

Mustaqil izlanuvchi

Email: zulxumornarzullayeva5@gmail.com

Tel: +998 99 452 44 87

Qashqadaryo, O'zbekiston

Annotatsiya. Saljuqiy sultonlari, amir va beklari ilm, adabiyot va san'atning homiysi sifatida buyuk ishlar qildilar. Ular orasida ilk saljuqiy sultonlari, xususan Malikshoh, Sanjar va Nizomulmulk madaniyat tarixida juda katta mavqega ega bo'ldilar. Olim, faylasuf, riyoziyotchi, tabib, san'atkor, adib va shoirlarning ko'pi Saljuqiylar saroylariga daxldor, ularning homiyliliklarida yoki vaqf etgan muassasalarida tahsil olgan edilar. Bu davr olimlarining aksariyat qismi turkiylar ekanligi, ularning ismlari, avtobiografiyalari va ba'zan mamlakatlarining nomlari orqali ma'lumdir. Malikshoh qurdirgan madrasalari va madaniyat markazlaridan tashqari olim va mutasavviflarga yilda 300.000 dinor (oltin) ehson qilgan.

Kalit so'zlar: Malikshoh, To'g'ulbek, Amidulmulk, Xuroson, Turkiston, Eron

THE ENLIGHTENMENT POLICY OF SULTAN MALIKSHAH

Narzullayeva Zulxumor Hazratqul qizi

Independent Researcher

Annotation. The Seljuk sultans, emirs, and beys accomplished great deeds as patrons of science, literature, and art. Among them, the early Seljuk rulers—particularly Malikshah, Sanjar, and Nizam al-Mulk—held a highly significant place in the history of culture. Many scholars, philosophers, mathematicians, physicians, artists, writers, and poets were associated with the Seljuk courts, studying under their patronage or in institutions they had endowed. It is known from their names, autobiographies, and sometimes their countries of origin that the majority of these scholars were of Turkic descent. In addition to establishing madrasas and cultural centers, Sultan Malikshah donated 300,000 dinars (gold coins) annually to scholars and Sufi mystics.

Keywords: Malikshoh, To'g'ulbek, Amidulmulk, Khorasan, Turkestan, Iran

KIRISH.

Saljuqiylar sultonligi eng gullab-yashnagan davrlarida hukmronlik qilgan Malikshoh, fath etilgan yerlarning xalqlariga bag'rikenglik va mehribonlik bilan munosabatda bo'lgan, hattoki, musulmon bo'lmaganlar ham uni chinakamiga sevib, hurmat qilganlar. Barcha xolis tarixchilar Malikshohning adolati va bag'rikengligini tan olganlar. Uning axloqi va oliyanobligi ahli kitoblar qalbida ham unga muhabbat uyg'otgan. Kichik Osiyodagi ko'pgina shaharlarning aholisi Malikshoh hukmronligi ostiga ixtiyoriy ravishda o'tishga qaror qilishganki, bu tarixda kam uchraydigan noyob hodisadir.

Manbalarda aytilishicha, Malikshoh zamonida musulmonlar va xristianlar o'zaro ahil-inoqlikda adolatli va farovon jamiyatda yashaganlar, g'am kulfat ko'rmaganlar. Saljuqiylar sunniylar xalifaligini diniy ramz sifatida qabul qilgan va dunyodagi barcha musulmonlarni shuxalifalik ostida birlashtirish g'oyasini qo'llab quvvatlagan. Shuningdek, xalifalikni himoya qilishgan. Boshqa bir manbalarda kelishicha, Bag'dod saljuqiy-sunniylar tomonidan bosib olingandan keyin Abbosiylarning siyosiy hukmronligi qisman tiklandi va dinning mavqei mustahkamlandi.

Saljuqiylar bosh vaziri Xoja Nizomulmulk (1018-1092) himoyasi ostida Movarounnahr hududida shofeiy mazhabi bir oz tarqalib, hanafiylik bilan raqobatga kirishgan bo'lsa ham, Abu Zahraning fikricha, bunday raqobat faqat fiqxiy munozaralar doirasida cheklangan bo'lib, fiqh ilmining rivojiga sabab bo'lardi hamda undan hech qanday adovat va xusumat kelib chiqmasdi. Lekin, zamon o'tishi bilan Shofeiy mazhabi al-Qaffol ash-Shoshiy singari buyuk vakillariga ega bo'lgan bo'lsa ham, hanafiy mazhabi qarshisida chekinishga majbur bo'ldi va O'rta Osiyoning barcha olimlari hanafiylikni qo'llab-quvvatlab, uning rivojiga katta hissa qo'shib keldilar. O'sha davrlarda shofeiy mazhabi Xuroson, Turkiston va Eronda katta e'tibor qozongan edi. Xoja Nizomulmulk o'zining "Siyosatnoma" asarida ta'kidlashicha, Sulton Mahmud G'aznaviy hanafiy mazhabida bo'la turib, ibodatlarni shofeiy mazhabi qoidalariga asoslanib ado etardi. Saljuqiylarning mashhur vazirlaridan biri Amidulmulk Abu Nasr al-Kunduriy hanafiy mazhabida shuningdek, "Siyosatnoma" kitobining muallifi Xoja Nizomulmulk shofeiy mazhabida edilar.

Shu bilan birga, saljuqiylar botil firqalarga nisbatan qattiq qarshilik qilganlar. Manbalarda kelishicha, Ismoililar, Botiniylar va Qarmatiylar turli nizolar kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Bevosita hokimiyat a'zolarinitashvishga soldi. Malikshoh hukmronligi davrida Ismoililar harakatining kuchayishi hamda ayollar ta'sirining ortib borishi xavfini keltirib chiqardi. Shuningdek, ushbu davrda mo'taziliylar keng qamrovli aqidaviy kurashni yo'lga qo'yib, o'z g'oyalarini tarqatishga urindilar. Ularning aqidaviy usullariga tayangan shialar, ayniqsa, Ismoililar va ularning turli guruhlar (Botiniylar, Qarmatiylar) bilan sunniylar orasida keskin kurash avj olgan bir paytda, Abu Mansur Moturidiy o'zining ko'p sonli asarlari va munozaralari bilan, E'tizol, Botiniya va Qarmatiya qarashlari noto'g'ri ekanligini isbotlab berdi. Ahli sunna val jamoa, ayniqsa, hanafiy mazhabining mustahkamlanishiga katta yordam ko'rsatdi.

Saljuqiy sultonlar, maliklar, beklar va a'yonlarning olimlarga, din kishilariga, shoir va san'atkorlarga ko'rsatgan hurmat-e'tibori, ularga atab qurgan muassasalari, qilgan ehsonlari hayratga molik va o'zlarining qudratlariga munosib darajada edi. To'g'rulbek: "o'zimga bir saroy qurib, yonida bir jome' qurdirmasam Allohdan uyalaman" deydi. U fath etgan shaharlariga kirar ekan, ilk ishi olimlar va din kishilarini tavoze bilan borib ziyorat qilish yoki qabul qilish bo'lgan.

Malikshohning Nizomulmulk orqali Bag'dodga Abu Ishoq Sheroziyga yuborgan maktubida, "Nizomiya" madrasasini ma'lum bir mazhabni himoya qilish uchun emas, ilmni himoya qilish va yuksaltirish g'oyasi bilan qurganliklarini, mazhablararo tafriqalanish siyosatini ko'zlamaganliklarini bildirgan ta'biri, din va so'z erkinligi haqidagi sog'lom fikr va siyosatning eng go'zal namunalaridandir.

Saljuqiy sultonlari, amir va beklari ilm, adabiyot va san'atning homiysi sifatida buyuk ishlar qildilar. Ular orasida ilk saljuqiy sultonlari, xususan Malikshoh, Sanjar va Nizomulmulk madaniyat tarixida juda katta mavqega ega bo'ldilar. Olim, faylasuf, riyoziyotchi, tabib, san'atkor, adib va shoirlarning ko'pi Saljuqiylar saroylariga daxldor, ularning homiyliklarida yoki vaqf etgan muassasalarida tahsil olgan edilar. Bu davr olimlarining aksariyat qismi turkiylar ekanligi, ularning ismlari, avtobiografiyalari va ba'zan mamlakatlarining nomlari orqali ma'lumdir. Alp Arslon o'ziga tegishli mablag'ning

bir qismini faqirlarga ulashib, o'ndan birini esa ilm kishilariga sarf etgan . Malikshoh qurdirgan madrasalari va madaniyat markazlaridan tashqari olim va mutasavviflarga yilda 300.000 dinor (oltin) ehson qilgan . Saroyi va muhiti olim, shoir, tabib va faylasuflar bilan to'la bo'lgan sulton Sanjarning bir da'fa besh kun mobaynida olimlarga qilgan ehsonlari 700.000 dinor naqd pul, 1000 dona atlas kiyim bosh, juda ko'p ot va qiymatbaho narsalar bo'lib o'zining va davlatining hashamatiga mutanosib darajada edi deb riqoyat qilinadi. G'aznachi hazinaning bo'shab qolishi mumkinligidan so'z ochgan vaqt "Mening haqimda mol-dunyoga havasmand deyishlari xunuk bo'ladi; bu atlas kiyimlarni ham amirlarga tarqatib yubor", degan javobni oladi . Saljuqiylar dinga hurmat ko'rsatib, diniy ilimlarni rivojlantirish bilan bir qatorda tabiiy ilmlarga ham katta ishtiyoq bildirib, ko'plab yurtlardan olimlar va qimmatli ilmiy kitoblarni bir joyga to'pladilar .

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Saljuqiy hukmdorlar tasarrufidagi hududlarda bu davrga kelib, ilm-fan sezilarli darajada rivojlanganligiga shu davrda yetishib chiqqan ko'plab mutafakkir-olimlarning faoliyatlari dalil bo'la oladi. Bu kabi taraqqiyotga sabab bo'lgan omillardan biri shuki, saljuqiy sulola vakillari hamda mashhur vazir Nizomulmulk tomonidan tomonidan o'tkazilgan ma'rifat sohasidagi islohotlar edi. Ilm-u ma'rifatga bo'lgan an'anaviy jiddiy e'tibor saljuqiylar davrida o'zining yuksak darajasiga ko'tarildi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ali Muhammad Sulabiy. Davlatu as- Salajaqa.
2. Bartold V.V. Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya // Sochineniya. – T. I. – M.: Izdatelstvo vostochnoy literatury, 1963.
3. Juzjoniy A.Sh. Islom huquqshunosligi, hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari.
4. Imad ad-din Isfahoniy. Al-Katib al-Isfahani. Leiden, 1889.
5. Islom ensiklopediyasi. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2004
6. Turan. O. Selçuklular tarihi ve Türk-İslam medeniyeti. İstanbul, 2015
7. Sadr ad-din Ali al-Xusayniy. Axbar ad-Dauvlat as-Saljukiyya. M. "Nauka", 1980
8. Zakariyo Qazviniiy. Osor ul-bilad.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**VIII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
MATERIALLARI**
2025-yil, 2-noyabr

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.
VIII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent:
Scienceproblems team, noyabr, 2025. – 52 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 1-noyabr

ISBN 978-9910-8337-2-4

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.